

Bolaning bir qo‘liga non, bir qo‘liga kitob bering!

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Teng

# YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

2008-yil  
25-avgust  
N:34  
(66679)

## SAN’ATIMIZ NIHOLLARIKA «NIHOL» MUKOFOTI

YOSHLAR IJOD SAROVI



Vladimir  
GRANKIN  
olgan surat

Aziz o‘quvchilar!

Eng sevimli va eng arzon gazetangizga  
yilning ikkinchi yarmi uchun

# OBUNA

davom etmoqda. Istalgan aloqa  
bo‘limlarida qadrdon gazetangizga  
obuna bo‘lishingiz mumkin.

15-avgust 2008-yil. Poytaxtimizning eng muhtasham «Istiqlol» saroyi. Bu kun koshonamizning ko‘rki o‘zgacha, mehmonlarning dillarida bayram shukuhi. Quvonmay bo‘ladimi, axir bugun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh iste’dodlar uchun ta’sis etgan «Nihol» mukofoti 15 nafar sovrindorlarga tantanali ravishda topshiriladi. Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati tomonidan o‘tkazilgan ushbu ko‘rik-tanlov yurtimizning barcha hududlarini qamrab oldi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining barcha tuman, shaharlarida bo‘lib o‘tgan biringchi bosqichida 8122 nafar yoshlari o‘z iqtidorlarini sinab ko‘rishdi. Ikkinchi viloyat bosqichida 881 nafar ishtirotchi bellashdi. Umidli san’at ixlosmandlari orasidan 89 nafari respublika bosqichiga yo’llanma oldi.

Keskin ijodiy bellashuvlar asosida o‘tgan

yakuniy – respublika bosqichida har bir viloyatdan 2 nafar, Toshkent shahridan 4 nafar, jami 30 nafar yosh ijrochi «Nihol» mukofotiga nomzod sifatida ishtirot etdi.

Saralarning orasidan ham 15 nafar eng sarasi aniqlanib, ularga «Nihol» mukofoti tantanali ravishda topshirildi.

Mazkur mukofotga musiqa san’atining turli yo‘nalishlari va xoreografiya bo‘yicha Gulmiraxon Abdulahatova, Ilyos Arabov, Shavkat Ergashev, Azamat Muhammadjonov, Behzod Abduraimov, Bunyod Saidov, Saida Saidbekova, Sirojiddin Fayziyev, Muhabbat Mehmonova, Ra’no Avazova, Sa’dulla Badalov, Oybek Alimov va Nigora Ismoilova, Dilnoza Shermatova, Rashid Xo‘jasov, Ziyoda Qobilovlar loyiq topildilar.

«Nihol» mukofotgi sohiblari, san’at ustalari va ijrochi yoshlari ishtirotidagi konsert dasturi kechaga yana-da fayz kiritdi.

Gazetamizning ko‘p ming sonli o‘quvchilari «Nihol» sovrindori  
bo‘lgan aka va opalarini samimiy qutlashadi.



2008 Tong yulduzi  
25-avgust

## Vogealar, xabarlar...

# VATAN haqida kim nima degan?

Elga qo'shilg'on el topti.

\*\*\*

Vatan tarkini bir nafas aylama,  
Yana ranji g'urbat havas aylama.  
Alisher NAVOIY

Kim vatanini xor qilsa,  
u oilasidan ham ayrıldı.

Pyer KORNEL

Kim o'z yurtini sevmasa,  
u hech nimani seva olmaydi.

Jorj Gordon BAYRON

Shunday jinoyat borki,  
uni oqlab bo'lmaydi – bu vatanga xiyonat.

Pyer BUAST

O'z vataniga dog' tushirish – uni  
sotish degan so'z.

Viktor GYUGO



## CHOCHNING ZARBXONASI

Aziz bolalar, o'tgan safar biz qadimgi Chochda metall buyumlardan zeb-u ziynatlar yasalgani haqida ma'lumot bergen edik.

IV-VII asrlarga kelib, G'arbda Vizantiyadan tortib Sharqda Xitoygacha bo'lgan davlatlarning savdosoti karvonlari aynan Choch orqali o'tgan. Toshkent hududidan topilgan kumush tangalar ana shundan dalolat beradi.

Chochda shahar hokimining kumush tangalar chiqaradigan maxsus zarbxonasi bo'lgan. Tangalarning old tomoniga hukmdorning surati, ortiga esa sher yoki qoplon tasviri tushirilgan.

O'sha zamonlarda ham ayollar o'z mavqelariga ega bo'lishgan. Bolalar, siz bilasizki, ajodolarimiz, otabobolarimiz ahli-ayollarning hurmatini joyiga qo'yishgan. Ba'zi kumush tangalarda hukmdor bilan birga malikalarning yuz tasvirlari yonma-yon tushirilganki, bu narsa ilk o'rta asr ijtimoiy va iqtisodiy, ayniqsa, siyosiy hayotida hukmron ayollarning nufuzi baland bo'lganini ko'rsatadi.

Biz hech kimdan kam bo'lmaymiz, kam bo'lmaganmiz.

Toshkentning 2200 yilligiga



## BUNDAN HECH KIM XAFA BO'LADI



Kuni kecha respublikamizning barcha go'shalarida «Kelajak ovozi» respublika iqtidorli yoshlar tanloving tuman hamda shahar bosqichlari o'tkazilib, g'oliblar tanlab olindi. 2005-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan mazkur tanlovdan bu yil 54 mingdan ziyod iqtidorli, iste'dodli tengdoshlarimiz ishtirok etib, o'z bilim va mahoratlarini sinovdan o'tkazishdi. «Tasviriy va amaliy san'at», «Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari», «Ratsionalizatorlik takliflar, texnik loyihibar va ishlannmalar», «Ijtimoiy loyihibar va biznes reja», «Badiiy ijod», «Me'morchilik va dizayn», shuningdek, 2007-yilda kiritilgan «Sport» nominatsiyalari bo'yicha ishtirok etgan yosh iqtidorlar orasidan eng iqtidorlilari saralab olindi.

Men ham tanloving Sobir Rahimov tumani bosqichida «Badiiy ijod» nominatsiyasi bo'yicha ishtirok etib, o'z bilimimni yana bir bor sinovdan o'tkazdim hamda Toshkent shahar bosqichiga yo'llanma oldim. Tanlovdan kimir g'olib bo'ldi, kimir mag'lub. Lekin bundan hech kim xafa bo'lmadi. Asosiysi, bir-birimiz bilan samimiyo do'stlashib oldik. Axir tanloving oldiga qo'ygan asosiy maqsadi ham shu edi-da!


Uyga kelib, quvonchimni ota-onam bilan o'rtoqlashdim.

– Ha, bolajonim, sizlar juda baxtli, saodatlari avlodsizlar, – deya quvonchimiga sherik bo'ldilar buvum. – O'qib-o'rganaman, izlanaman desangiz, barcha sharoitlar muhayyo. Istiqlolim bergen bunday imkoniyatlarning qadriga yetinglar!

Buvijonimning nasihatlari meni yana-da ruhlantirib yubordi. Tanloving navbatdagi bosqichlarida albatta g'alaba qozonishga bel bog'ladim.

Aziz tengdoshim, siz ham unda ishtirok eting, «Kelajak ovozi»mizning aks-sadosi yurtemizga yoyilsin!

Qamariddin SHAYXOV



## Cho'ntak qachon paydo bo'lgan?

Ko'pchilikka ma'lumki, hozirda dunyoning mashhur dizaynerlari tomonidan har bir mavsum uchun yangi urfdagi liboslar tikiladi. Biroq, ma'lum bo'lishicha, dastlabki yaratilgan kiyimlarning hatto cho'ntagi ham bo'lmagan ekan. Kiyimlarga cho'ntak tikish XVI asrning ikkinchi yarmida o'yab topilgan. Ungacha odamlar pullarini kichik xaltachalarga solib, kamarlariga osib yurishgan. O'g'rilar bunday hamyonlarni osonlikcha o'g'irlab ketishgan. Shu bois, 1585-yildan boshlab tikuvchilar kiyimlarga cho'ntak tika boshlaganlar.

## Chumchuqlar soni qancha?

Aziz gazetxon o'quvchilar! Siz dunyodagi bor chumchuqlar sonini bilishni istaysizmi? Marhamat, yer yuzida mayjud chumchuqlar soni 1 milliard atrofida bo'lib, har olti kishi boshiga bittadan chumchuq to'g'ri kellar ekan. Ana shunaqa...



## Bahaybat fillar

Ulkan Afrika fillarining bo'yi 3,8 metr, xartumidan to dumigacha 10 metr, og'irligi esa 10,8 tonnani tashkil etadi.



## Qonxo'r chivinlar

Chivinlar odamzotni bir yil ichida taxminan yüz bora chaqishi aniqlangan.



## Sahrodagi gullar

Qumlarda gulli o'simliklarning 350 dan ortiq turi o'sadi. Bular orasida foydali o'simliklar bisyor. Saksovul, juzg'un, cherkez, iloq kabi o'simliklar qum ko'chishlariga yo'l qo'ymaydi.

## Jonli kutubxona

Mazkur jonli kutubxonalar tashrif buyurgan o'quvchi ro'yxatda ko'r-satilgan insonlardan birini tanlaydi va u bilan 30 daqiqa davomida suhbatalashadi.

Gapshundaki, jonli kutubxonalarida kishi ichidagi bor dard-u hasratini tanlagan suhbatsoshiga to'kib sochadi. Bu g'oya

skandinaviyaliklarga tegishli. Biroq, yaqindan boshlab jonli kutubxonalar Buyuk Britaniyada ham ochila boshlangan. O'quvchilar o'z suhbatsoshini kataloglar orqali tanlashadi. Katalogdan turli kasb egalari o'rinn olgan. Jonli kutubxonaga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Kutubxona direktorining aytishicha, bunday kutubxona biroz bo'lsa-da, insonlarning dardiga malham bo'la oladi. Jonli kutubxonalar qaysidir ma'noda odamlarga yaxshilik ulashadi. Qolaversa, ularda mehr-oqibat kabi insoniy tuyg'ularni shakllantirir ekan.

DILOROM tayyorladi

## SENI SOG'INDIM,



Hanuz yodimda, maktabimiz direktori Sayfulla aka Mahkamov barchani Mustaqillik bayrami hamda birinchi o'qish kuni bilan qutlab, kichkinagini qo'ng'iroychani 1-sinf o'quvchisi qo'liga tutqazardilar. Yurakni qat-qatiga singib ketuvchi qo'ng'iroy jarangi butun maktabni tutib ketardi. Birinchi darsni ona tili va adabiyot muallimamiz Rixsiya opa Shokirova shunday so'zlar bilan boshlardilar:

— Uch oyda ancha bo'yingiz cho'zilib, kap-katta yigit-qiz bo'libsizlar. Yoshingiz ham bir yoshga ulg'aydi. Endi ota-onangiz oldida yana ham ko'proq mas'uliyatni bo'yningizga olasiz. Yaxshi o'qib, ular ishonchini oqlashingiz kerak. Uka va singillaringizga a'lo baholaringiz bilan o'rnat bo'lsangiz, ular siz bilan faxrlanib yuradilar. Kelgusida esa o'zingiz xohlagan oliygohga maktabda olgan a'lo baholaringiz bilan qynalmay kira olasiz. Kelajakda sevgan kasbingizning mohir ustasi bo'lishingizga maktabda olgan bilimlaringiz poydevor bo'ladi.

Ustozimiz o'gitlariga amal qilib, puxta bilim olishga harakat qildik. Avval Milliy universitet talabasi bo'lganimda, keyin magistraturani tamomlaganimda ustozlarim o'giti, ular bergen bilim hayotda o'z o'rniymi topishimda katta ko'mak bergenini his qildim.

Oradan 10 yil o'tdi. Shu yilning 14-iyun kuni sinfdoshlar bilan biz uchun qadrondan bo'lgan 274-maktabda uchrashdik. Ta'tilning ikkinchi oyi, o'qituvchilar mehnat ta'tilda. Ammo mehnatsevar, maktabga o'z uyidek mehr qo'ygan direktorimiz Sayfulla aka bizni kulib qarshi oldilar. Maktabimiz esa batamom o'zgarib ketgan edi. Biz o'qigan bir qavatlari eski maktab o'rnda zamonaviy, barcha talablarga javob beradigan go'zal va ko'rkan yangi maktab qad rostlagan edi. To'g'risini aytam, bizga eski maktabimiz qadrledek tuyuldi. Lekin yangi maktabning yorug'xonalariga kirar ekanmiz, 10 yil ichida katta o'zgarishlar bilan bizni qarshi olgan maktabimiz

Sentabr oyi yaqinlashgani sayin qadrondan maktabi, jonkuyar ustozlari-yu sinfdoshlariga bo'lgan sog'inch tuyg'usi har bir o'quvchi qalbida kuchayishi tabiiy hol. Bir necha yillar avval 1-sentabr kuni biz ham ana shunday sog'inch bilan maktabga oshiqardik.

## MAKTAB!




ustozlari hali-hanuz sodda va xokisor edilar. Birinchi ustozimiz Muhabbat opa Jo'rayeva hamda sinf rahbarimiz Rixsiya opa hech o'zgarmagan, bizni o'z farzandlaridek bag'riliga bosib ko'rishishlarida ham bir olam mehr mujassam edi. Ustoz va shogirdlar o'quvchilik yillarini birma-bir xayoldan o'tkazdik. Ustozlarimiz bizga xuddi uch oylik yozgi

ta'tildan qaytgandek sog'inib qarashar, faqatgina ta'tildan so'nggi beradigan savollari «Ta'tilda nechta kitob o'qidingiz?» emas, «Senda-chi, sening farzanding nechta bo'ldi?»ga o'zgargan edi. Sinfdoslarimiz birma-bir turib o'z kasblari, oilalari haqida so'zlab berishdi.

Ustozlarimiz bizning yutug'imiz va baxtimizdan shodlanib, ko'zlarida faxr va g'urur tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ldi. Maktabdan chiqayotganimizda esa ortga yana bir bor qaradim. Kelgusi avlod Mustaqillik darsini ana shunday fayzli, yangi va ko'rkan maktabda o'tishlarini xayolimdan o'tkazib, ularga havasim keldi. Qalbimni to'lg'irlantirgan uchrashuv, sevimli ustozlarim, qadrondan maktabimga qayta-qayta tikilar ekanman, dilimda: «SENI SOG'INDIM, MAKTAB!» degan so'zlar takrorlanardi.

Gulyuz BAHODIR qizi



## O'TKINCHI EMAS EKAN

Beg'ubor bolalik mamlakati darvozasi kalitini qo'lida mahkam tutgan, unda bir umr qolib, fidoyilik ko'rsatayotganlar ham bor oramizda. Men yaqinda ana shunday bolalikka sadoqatli insonlardan biri bilan tanishib suhbattashdim, olis bolaligim bog'larida biroz sayr qildim, dilim ravshan tortdi.

Menga bu shodlikni baxsh etgan hamrohim Yo'ldosh Oxunboboyev nomidagi respublika Yosh tomoshabinlar teatrining iste'dodli, fidoyi aktrisasi Farida Umarova bo'ladi.

— Dadajon, dutoringizni bir chalib ko'ray, — erkalandi o'n yoshli qizaloq Farida otasi Jo'ravoy akaga devorda ilig'liq turgan sozni ko'rsatib.

— Dutor chalish osonmas, qizim, avval childirma chalishni o'rganib ol, ayangni sinovidan o't, — jilmaydi dadasi.

— Faridaxon, qani childirmangni chalchi, — qiziga dalda berdi Toshxon aya.

— Bugun maktabimizda aytgan ashulamni aytaymi? — qizcha xonasiga yugurib kirib ayasi yaqinda o'ziga sovg'a qilgan doirani olib chiqdi-yu, uning gardishiga sekin-sekin urib shiraligina ovozda q'shiq boshladi:

— Hakalakam o'ynasam-chi-yo dukalakam o'ynasamchi,

Ayam ruxsat bersalar sahnada o'nasamchi...

Qizimizning ovozi tuzuk-ku, — xursand bo'ldi dadasi, — musiqani his qilishi ham

yomonmas.

— Qizingiz tuman madaniyat saroyidagi to'garakka qatnashmoqchi.

— Qatnashaversin, odatda uning yoshidagilar har kuni har kim bo'lgisi kelaveradi, orzuga ayb yo'q. O'zini sinab ko'raversin, balki shunchaki qiziqish bo'lsa, o'tib ketar. San'atni sevgan boladan yomon odam chiqmaydi, — dedi Jo'ravoy aka xotirjamlik bilan.

Ming shukrki, Faridadagi san'atga bo'lgan havas o'tkinchi emas ekan. Ko'chadagi o'rtoqlarini to'plab «artist-artist» o'ynab yurgan chog'laridayoq qalbiga o'rnashgan mehr o'zi bilan birga ulg'ayib muhabbatga aylandi.

Oxunboboyev nomidagi Andijon viloyati musiqli drama teatrinda ishlab mahoratini oshirgan F.Umarova Toshkentdag'i respublika Yosh tomoshabinlar teatriga ishga

keldi-yu, yana butunlay bolaga aylandi-qoldi.

— Bir kuni qiziq bo'ldi, — deb eslaydi Farida opaning hamkasbi, respublikada xizmat ko'rsatgan artist Xudoyor Toshpo'latov, —

Bo'ka tumanidagi «Mehribonlik uyi» bolalariga «Sirli sandiq» ertagini namoyish qilayotgandik. Bir vaqt salbiy qahramon Qimmat yo'qolib qoldi. Bunday qarasam, Zumradga rahmi kelgan tomoshabin bolalar Qimmat — aktриса Hakima Otaxonovani sahna burchagida o'rab olib, sahnaga Zumradni «azoblashga» chiqarishmayotgan ekan. Go'zal, oqila Zumradga, ya'ni Farida Umarova mahoratiga tomoshabinlar ishonchi, mehrining natijasi edi bu.

Farida Umarova 35 yillik mehnat faoliyatida teatr sahnasida tomoshabin mehrini qozongan ana shunday o'nlab obrazlar yaratdi. «Sehrli dur»dagi tabiat malikasi, «Oltin jo'ja»dagi jo'ja, «Cho'p qo'g'irchoq»dagi buvi, «O'rmon mashmashalarida»gi tovuqvoy, Olovuddinning sehrli chirog'i»dagi ona ana shunday bolalarni o'ylab, bolalarga moslab yaratilgan quvnoq, go'zal, diltortar qahramonlar.

Bu obrazlar nafaqat Farida Umarova, balki Yosh tomoshabinlar teatrining ham yurtga tanitdi, bu muqaddas dargoh aktyorlar uchun ulkan mahorat maktabi ekanligini namoyish qildi.

Muhabbat HAMIDOVA



## BOLALIK



Qoshingga borsam uchib,  
Armonlarimni quchib.  
Hijron tog‘idan tushib  
Talpinganim bolalik.

Bir dam o‘zni yod etib,  
Anduhlarini unutib.  
Ifordingdan entikib,  
Sog‘inganim bolalik.

Qiyqirib, shodon kulib,  
Quvonchdan baxtga to‘lib.  
Gurkirab guldek unib,  
Ulg‘ayganim bolalik.

Osmondek orzu qilib,  
Yulduzlarga tikilib.  
Mehringga tashna bo‘lib,  
Kuylaganim bolalik.

NAFISA

## OQSHOM GO‘ZALMI YO TONG?

To‘lin oy ko‘rinsa tunda osmonda,  
Quyoshning nurlari qolgay armonda.  
Yulduzlar porlasa bu tun har yonda,  
Xayolga tolaman...  
Oqshommi go‘zalroq yoki tong go‘zal?

Zarrin nurlarini sochganda quyosh,  
Bulutlar bo‘lganda yonida sirdosh.  
Gullar dudog‘ida to‘lib tursa yosh,  
Xayolga tolaman...  
Oqshommi go‘zalroq yoki tong go‘zal?

Oyning nur tolasi tushar yuzimga,  
Quvonch-la boqsa oy mening ko‘zimga.  
Allasi o‘xshasa aytgin so‘zimga,  
Xayolga tolaman...  
Oqshommi go‘zalroq yoki tong go‘zal?


Bilaman, tong bilan oqshom o‘xshamas,  
Shafaqdan to‘kilar nurlar basma-bas.  
Menga olislardan yangraydi bir sas,  
Oqshom go‘zalroqmi yoki tong go‘zal?  
Bilmadim, qay biri men uchun go‘zal?..

Sokinaxon BAHODIROVA,  
Uchtepa tumanidagi 203-maktabning  
8-sinf o‘quvchisi

## VATAN

*Naqadar buyuk so‘z  
Vatan degani.  
Vatan bog‘-u bo‘ston,  
Chaman degani.  
Shu aziz tuproqda  
Tug‘ilib o‘sdim.  
«Ona», «Vatan» bo‘ldi,  
Ilk aytgan so‘zim.  
Sharqning yuragida,  
Joylashgan Vatan.  
Senga jon baxshida,  
Senga jon qurban.  
Serquyosh o‘lkasan,  
Ko‘ksing to‘la nur.  
Seni bir ko‘rganda,  
Ming qildim huzur.  
Tog‘laring bag‘rida,  
Zilol suv oqar.  
Jannatmakon go‘sham,  
Visoling yoqar.  
Ey, Muqaddas Vatan,  
Senga bu ash‘or.  
Dunyo e‘zozida,  
Yasha baxtiyor.*

Zohidjon SHUKUROV,  
Toshkent shahar,  
Uchtepa tumanidagi  
197-maktabning  
8-«D» sinf o‘quvchisi



## O‘ZBEKISTONIM

Toleim, taxtim,  
Orzu-yu ahdim,  
Eng buyuk baxtim,  
Qo‘shiq, dostonim –  
O‘zbekistonim.

Osmon – falagim,  
Dilim, tilagim,  
Jonim, yuragim,  
Sharafim-shonim –  
O‘zbekistonim.

Nasibam, naslim,  
Asilim, aslim,  
Yilim – to‘rt faslim,  
Manzil – makonim –  
O‘zbekistonim.

Halima MUHAMMEDOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Mirishkor tumanidagi  
31-maktabning 9-«A» sinf  
o‘quvchisi

Har fasning o‘zgacha gashti, tarovati bor. Bolaligimda yoz fasli menga juda yoqardi. Xazoraspaga borib, miriqib dam olardim. Xazorasp Navoiy viloyatidagi qir-u adirlarga boy, Zarafshon daryosi bilan tutashgan so‘lim go‘sha. Bobom meni shu qadar yaxshi ko‘rardilarki, asti qo‘yavering. Bir kuni buvimga pul berib:

– Buvisi, qizimga chiroyli palto olib bering, o‘ziga yoqqanini olib bering-a, – deya qayta-qayta ta‘kidladilar. Bozorga bordik. Buvim chiroyli kulrang paltoni ko‘rsatib, kiyib ko‘r-chi, qizim, dedilar. Men esa qo‘limni cho‘zib, undan yuqoridagi lovullab yonib turgan paltoni ko‘rsatdim.

– O‘shani olib bering-chi, – dedilar buvum sotuvchiga. Kiyib ko‘rsam, judayam yarashdi. Buvim:

– Sal kattarog‘i yo‘qmi? – deb so‘radilar. O‘zi bittaligini bilgach, meni yupata boshladilar.

– Bolam, axir hozir yoz-ku, qishgacha o‘sining mumkin. Narigisi ozgina kattaroq ekan. O‘shani o‘rab bera qoling, – dedilar. Paltoni olib uyga kelgach, bobom: «Qani, bir kiyib ko‘rsating-chi», deyishlari bilan yig‘lab yubordim.

– I-i, nima bo‘ldi?

Bobom buvimni chaqirdilar. Buvim bo‘lgan voqeani gapirib bergandilar:

– Qani, olib kelgan narsangizni oling-da, qizimga yoqqanini olib bering, – dedilar.

– Uni qancha turishini bilasizmi, 50 so‘m-a, hali bu bola bo‘lsa, ko‘ngli nimani xohlasa, shuni qilaversizmi?

– 50 so‘m bolaning ko‘z yoshidan aziz bo‘ldimi? Bilasan-ku, bolaning ko‘zida yosh ko‘rsam, yuragim tilka-pora bo‘lib ketadi, – dedilar bobom.

Ularning ko‘zlaridan bir tomchi yosh yumalab, sanab turgan pullariga tushdi. Xullas, men o‘sha paltoga ega

bo‘ldim. Sakkizinchisinfni tugatib, to‘qqizga o‘tar chog‘imda, bobom jigar xastaligiga chalinib, olamdan o‘tdilar. Buvimning aytishlaricha, umrlarining oxirgi kunlarida amakilarimni chaqirib, «Hammangdan ko‘nglim to‘q, ammo bolamni o‘qitilmay ketayapman. Unga seni jurnalist qilaman, deb so‘z beruvdim, afsuski, so‘zimning ustidan chiqolmadim. Hozirgacha ko‘zidan bir tomchi yosh tomishiga yo‘l qo‘ymadim, mendan keyin ham shunday bo‘lishiga umid qilaman. Mabodo, bolamning ko‘zlaridan yosh oqsa, sizlardan rozi

ko‘rinmas mish.

– Otamning qo‘ylari-ku, – debdilar amakim va qabriston qorovulidan:

– Bu qo‘ylar har kuni keladimi? – deb so‘rabdilar.  
– Otangizni yerga qo‘yaningizdan buyon har kuni shu holat yuz bermoqda, – debdi qorovul.


Bu voqealardan taajjublangan amakilarim bobomning eng yaqin do‘sti bo‘lgan Ramazon cho‘ponga bo‘lgan voqeani gapirib berishdi.

– Bu tulporning tarixi qiziq, bolalarim. Uni dunyoga keltirgan onasi o‘sha zahotiyoy olamdan o‘tdi.

Nimjingga tug‘ilgan toyini esa baribir o‘lib qoladi, deb tashlab ketishgan. U haqiqatan ham nimjon, behol edi. Rajab uni belbog‘iga o‘rab, xurjuniga solib, otariga olib kelgan.

– Hoy, nima qilyapsan, hali vaqt bor-ku, esing joyidami seni? – deyishimga ham quloq solmagan. Keyin bilsam, toychoqqa sut bermoqchi bo‘lgan ekan. Darrov echkini sog‘ib, sutini emiza boshladim. O‘sha paytlarda o‘zi emolmaydigan qo‘zichoqlar uchun doim so‘rg‘ich olib yurardik. Toy 10 kun deganda oyoqqo turdi. Rajab uni xuddi bolasidek parvarishlab katta qildi. To‘g‘rirog‘i, men inson bilan jonzot o‘rtasidagi bunday mehr-muhabbatni ko‘rmaganman. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u Rajabdan ayrib qolganiga chidolmayapti, – dedilar Ramazon cho‘pon.

Shunday qilib, qirqinchi kuni tunda tulpor kishnay-kishnay qabr ustiga boshini qo‘yib, bu olamni tark etdi. Vo ajab, bu olamning sir-u sinoatlarni qarang, ba‘zida inson-insonning qadrini bilmaydi, bir-birlarini dilini og‘ritadi. Nahotki, tilsiz jonzotchalik insonda mehr-muhabbat bo‘lmasa?! Axir biz Hazrati insonimiz-ku!



emasman», degan ekanlar.

Bobomning vafotlaridan keyin yarim tunda qirdagi chayladan otning tinimsiz kishnagan ovozini eshitdim. Keyin bilsam, o‘sha kecha butun qishloq bezovta bo‘lgan ekan. Tongda qabristonga borgan amakilarim Javohirni (bobomning tulpori) bobomning qabrlari ustiga boshini qo‘yib yotganini ko‘rishi. Uchinchi kuni esa qabriston atrofida poda yurgamish, lekin cho‘pon

Mohigul SUVONOVA



## «OLIMI ZAMON BO‘LSAM...»

Bu shunchaki balandparvoz gaplar emas. Yaqinda Ispaniyaning Barselona shahrida maktab o‘quvchilari o‘rtasida matematika fani bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro Olimpiadada bronza medalini qo‘lga kiritgan namanganlik tengdoshingiz Farhod Haydarovning samimiylar. Olimpiadada ishtirot etgan 190 mamlakat vakillari orasida yuksak pog‘onani zabit etib, yurtimiz dovrug‘iga dovrug‘ qo‘shgan Farhodjonning beg‘ubor qalbi faxr va iftixor tuyg‘ulariga, orzularga limmo-lim. Yosh avlodning kelajagi, o‘qib-o‘rganishi, iqtidoriga yarasha intilishi uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilgan shunday yurt farzandi ekanligidan quvonmay bo‘ladimi, axir?!

-Yurtimizda biz yoshlardan shunday e’tibor va g‘amxo‘rlik bo‘limganida men – oddiy ishchi oilasi farzandining bilimimni xalqaro miqyosdagi nufuzli bellashuvda sinovdan o‘tkazishim, o‘z kuchimga ishonib, mamlakat sharafini himoya qilishga jur‘at topishim qayoqda edi?! – deydi Farhod hayajon bilan. – Kelajakda al-Xorazmiy bobomdek olimi zamona bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarim bilan jahon ichra shuhrat qozonishni niyat qildim va bu yo‘lda tinmay o‘qib-izlanmoqdaman. Shundagina yurt ravnajiga oz bo‘lsada, o‘z ulushimni qo‘shgan bo‘laman...

Farhodjonning bu samimiylar so‘zlarini o‘qib, ko‘nglimizdan bir o‘y kechdi: vatanini chin dildan sevadigan insongina shunday fikrlaydi, ezgu niyatlar qiladi. Biz esa ularning ijbatiga tilakdoshmiz.

## «BIZ UMMONMIZ...»



*Toshkent viloyatining so‘lim Zangiota tumani yashayman. O‘n yil avval tumanimizda bo‘lgan kishi shu kunlarda yana kelsa, uni tanimay qolishi aniq. Sababi, tumanimiz kun sayin ko‘rkamlashib, chiroy ochib boryapti.*

Yurtimiz uzra bayram shukuhi kezib yurgan ayni damda zahmatkash quruvchilarimizning qo‘li qo‘liga tegmayapti. Ular ikkita kollej va bitta maktabni mustaqilligimizning 17 yilligi to‘yiga to‘yona qilishmoqchi. Yaqinginada mahallamizda qurib bitkazilgan sport maydonchasida esa kichkintoylarimiz miriqib o‘ynab yurishibdi.

Tumanimizdagagi serhimmata tadbirkorlardan nafaqat bolajonlar, balki ularning ottonalari ham juda mammun bo‘lishyapti. Quvonishmasinmi, farzandlari ular tashabbusi bilan ochilgan turli yo‘nalishdagi kurslarda tahsil olib, hunar o‘rganishyapti axir!

Tumanimiz yoshlari ham bunday g‘amxo‘rliklarga o‘z bilim va intilishlari bilan javob qaytarishyapti.

Mazkur yilimizning «Yoshlari yili» deb nomlanishi chin ma’noda biz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi tomonidan o‘tkazib kelinayotgan «Kelajak ovozi», «Yangi avlod» kabi qator tanlovlarida o‘z iqtidorimizni sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ldik.

Zero, biz yoshlardan bir ummonmiz, ertamizning qanday bo‘lishi bizga bog‘liqligini yaxshi bilamiz. Qo‘lni qo‘lga bersak, dovonlarni zabit etamiz.



Komila DEHQONOVA,  
O‘zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyi o‘quvchisi

## ISTIQLOLGA TENGDOSH QIZ




Shahoza Ravshanova mustaqillik tengdoshi. Chirchiq shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan maktabda o‘qib yurgan kezlaridayoq gazetamizning eng faol muxbirlaridan sanalardi. «Yosh qalamkashlar» to‘garagining har bir mashg‘ulotiga kanda qilmay qatnardi. Falsafiy mushohadaga boy she’rlari, tarjimalarini o‘qib, ularni shu jajjigina qizaloq yozganiga ishongimiz kelmasdi gohida.

Hozirda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litseyda a‘lo baholarga tahsil olayotgan Shahnozaning she’rlaridan jamlangan «Kuz dardi» nomli kitobchasi bosmadan chiqdi.

«Shahnozaning she’rlarini o‘qigan kitobxon borki, uning misralarida o‘ziga notanish, ammo dilning eng yaqin hamrozini ko‘radi» deya so‘z boshi yozilibdi kitobchaga. Undagi she’rlardan birini e’tiboringizga havola qilyapmiz, shoyad siz ham o‘zingizga yaqin hamroz topsangiz:

### VATAN MEHRI

Go‘zal yurtlar ko‘pdir dunyoda,  
Xalqi ozod, bog‘lari chaman.  
Barchasidan o‘zing ziyoda,  
Mehring qalbim ildizi, Vatan!  
Sendan yiroq yurtlarda tushdek,  
Uyg‘onmoqni istaydi yurak.  
Ko‘kragimda qamalib qushdek,  
Tug‘yon urar tuyg‘u jonsarak.  
Dilni qamrab olar hayajon,  
Tinchlik bermas sog‘inchim menga.  
Murg‘ak qalbim, Vatan – onajon,  
Go‘dak kabi talpinar senga.  
Qo‘rg‘on yasay senga tanamdan,  
Jonajonim, jannatga tengsan.  
Mehring ulug‘ hatto onamdan,  
Chunki onam onasi sensan.



## JAVOB XATI KELDI

Shahzodaning jajji qizaloqlik davridanoq til o‘rganishga ishtiyoqi baland. Ayniqa, ingiz tiliga bo‘lgan mehri bo‘lakcha edi. Poytaxtdagi 173-maktabda o‘qib yurgan kezlarida ingliz tilidan uyg‘a berilgan vazifani bajaribgina qolmay, kichik hikoyachalarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, ustoziga ko‘rsatar, so‘ngra sinfdoshlariga o‘qib berardi.

Ana shu ishtiyoq uni Jahan tillari universitetiga yetakladi. Oliygohda ham tirishqoqligi, intiluvchanligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘ldi.

Yaqinda internet orqali insho yozib jo‘natgan Shahzodaga Amerikadan javob xati keldi. Tanlovdagi g‘olib deb topilgani uchun uni 4 oy muddatga ana shu mamlakatga ishta taklif qilishibdi.

Kuni kecha Shahzodani Amerikaga kuzatib qolgan otasi Bahodir aka va onasi Marg‘uba opaning quvonchi cheksiz:

– Yurtimiz mustaqil bo‘limganida bunday imkoniyatlar, sharoitlar qayda edi? – deyishyapti mamnuviyat bilan.



Sahifani  
ZAMONBEKA  
tayyorladi

**Ona haqida rivoyat**

Qadim-qadim zamonalarda baland-balad qorli tog'lar ortidami, yashil yaproqlari hamisha shuvillab turadigan qalin-qalin o'rmonlar ichidami, yam-yashil o'tlar bilan qoplangan yaylovlardami, poyonsiz, cho'llar ortidagi katta-kichik qishloqlardami, hamisha g'alati-g'alati voqealar bo'lib turarkan.

Yurtda boshlangan ocharchilik ana shu qishloqlardan biriga ham yetib keldi. Shunaqangi qattiq ocharchilik bo'libdiki, odamlar yeyarga hech narsa topolmaganidan ajriqning tomirini qaynatib ichishibdi, sholining to'ponidan non yopib yeyishibdi. Tinkasi qurigan odamlar, birin-ketin omonatini topshira boshlabdi. Xudoning marhamati bilan qishloqqa don bilan savdo qiladigan bir kishi kelib qolibdi. Puli bor puliga, puli yo'q moliga don sotib ola boshlabdi. Bu qishloqda bir xarob oila ham bor ekan, otasi olamdan o'tib, mayibroq ona besh bolasi bilan qolgan ekan. Ona behol ekan, o'rnidan turolmas ekan, besh bolasi birdan «Non ber», deb yig'lar ekan. Oilaning katta qizi endigina 16 yoshga kirgan bo'lib, ukalariga o'sha qarab turarkan. Qizgina bir mis choynagu to'rttagina chinni kosani olib borib, bir qopgina bo'lsa ham yo bug'doy, yo unga almashtirib bering, deya savdogarga murojaat qilibdi. Murojaat qilayotganda epkin bir shamol kelib, qizning yuzidagi harir ro'molini uchirib yerga tushiribdi. Savdogar yigit-qizning gul yuziga ko'zi tushishi bilan bir daqiqa dovdirab qolibdi. Yana bir shamol turishini Allohdan so'rabi. Epkin shamol qizning harir ro'molini yana uchiribdi, endi yigitning qalbi yonib ketgandek bo'libdi. Allohning menga buyurgani shu

bo'lsa kerak, deb qizgasovchi ustigasovchi qo'yibdi.

— Dod, — debdi onasi, — axir menga, ham ukalariga qarab turgan shu qizgina-ku. Bu ketsa biz xarob bo'lamiz, — debdi.

Savdogar «Oilangizga besh yilga yetadigan don-dun beraman», — debdi.

Qiz ham ukalarini, ham onasini ochlikdan qutqarish uchun begona eldan kelgan savdogarga turushga berishini so'rab onasiga yolboribdi va ko'ndiribdi. Ona rozi bo'libdi. «Lekin, bir shartim bor», — debdi «Shartingizni ayting», — debdi qiz ham yig'lab.



## ONA ALLASI

— Begona ellarga ketyapsan, olis ellarga ketyapsan. Qachon qaytishingni Xudo biladi. Baxtli bo'l, saodatlbo'l. Xudo xohlasa farzandlar ham ko'rarsan, agar farzand ko'rsang, «Alla» aytmagin. Qani, alla aytmayman, deb va'da bergen-chi.

— Alla aytmayman, onajon, — debdi qiz.

— Yana takrorla, — debdi ona.

Qiz «Alla aytmayman», — deb uch bora takrorlabdi. Shunday qilib, qiz begona ellarga kelin bo'lib ketibdi. Majruh ona savdogar yigit qoldirib ketgan don-dun, boshqa boyliklar bilan o'zi ham oyoqqa turibdi. Farzandlarini ham boqib katta qilib olibdi. Begona ellarga

kelin bo'lib ketgan qizgina ham o'sha yigitning tilini, urodatini o'rganib totuv turush kechira boshlabdi. Alloh ularga ham qo'sha-qo'sha farzandlar beribdi. Qiz onaizorining iltimosini yodidan chiqarmabdi. Hech biriga alla aytmabdi. Alla aytmay, katta qilibdi.

Nihoyat yillar o'tib, qarib buvi ham bo'libdi. Qo'sha-qo'sha nabiralar ko'ribdi. Bir kuni yaxshi ko'rgan nabirasini tizzasiga olib, to'lg'onib, chayqalib alla ayta boshlabdi. Onaizorining so'nggi so'zini butunlay unutib, onasi aytg'an alla so'zlarini yodida saqlab qolgan ekan. Ana o'shalarni takrorlab, og'ir, g'amgin ohangda kuylay boshlabdi.

Kuylar emish, yig'lar emish, kuy ohangi qalbidagi sog'inch hislarini to'lqinlantirib yuboribdi. Majruh onasi, orqasidan yig'lab qolgan ukalari ko'z o'ngidan o'ta boshlabdi. Kuy avjiga chiqqan sari birga o'ynab katta bo'lgan dugonalar, anhorlarda bir-biriga suv sochib cho'milganlari, hovlilar ortidagi keng yaylova gurkirab o'sadigan o't-o'lanlar, qishlog'idagi tor ko'chalar, soyasalqin maydonlar, to'ylarga borgani, rahmatli dadasi tirikligida yelkasiga minib bozorga borgani, dadajonisi popukli zar do'ppi olib bergani esiga tushibdi. G'amgin kuy avjiga chiqqan sari bolaligi, butun qishlog'i, bor go'zalligi, latofati bilan ko'z o'ngidan o'ta boshladi. Kuy goh kuchayib, goh pasayib borarmish. Kuy sehriga mahliyo bo'lgan ona dod solib hovliga chiqib: «Ketaman, qishlog'imga ketaman», — deb faryod solibdi.

Boshqa nabirasini ovuntirib o'tirgan bobo gap nimadaligini tushunib, kampirni yupatibdi. Ona allasida, uning goh quvonchli, goh g'amgin to'lqinlarida insonning butun borlig'i, ruhiy dunyosi, aks etishini tushunibdi. «Onang alla aytang, meni tashlab ketib qolishingdan qo'rqqan ekan. Yur, kech bo'lsa ham ona yurtingga borib, bolaliging bilan qayta ko'rishib kelaylik», — deb tuyalarga don-dun sovg'a-salomlar ortib yo'lga tushibdilar.

**Qag'-g'! Ishlar chatog'-g'! Qag'-g'! Qag'-g'!!!**

Hoy, ahvolimni so'rab nima qilasan? O'rgildim sendaqaqni mehribondan. Nima, aytganim bilan yarim dardimni tortishib berarmiding?

Qag', qag'-g'! Voy, ablag'-g'! Biqinimni yediku bu ablak Qoramosh!

Mabodo, seniki emasmi o'sha yumdalogs'ich maxluq? Haligi qora mushukni aytaman-da. Bu befarosatni avvallariyam yomon ko'rardim. Boya o'rikning shoxida qirov yalab o'tirsam, baraka topkur Laychavoy unizing illatganicha quvib o'tib qoldi.

Ana endi Qoramoshning holini tomosha qil — qo'rquvdan junlari tikkayib, ko'zlar ola-kula bo'pketibdi. Oyog'i yerga tegmaydi. Shu qochishda qochib borib, o'zini bostirmaning ostiga urdi. Bostirmaning chetiga bir uyum xazon to'plab qo'yilgan, ivitib qo'yga berib turishadi-da. Qoramosh bora solib, xuddi o'sha xazonning ichiga kirib ketdi. Daraxtning ustidan ko'rib turmasam ekan!

Qarasam, Laychavoy garangsigan taxlitda ivrisib qoldi. Bu ishga shaxsan o'zim aralashmasam bo'lmaydigandek tuyuldi. Borib, yaqinroqqa qo'ndim-u, go'yo hech nimadan xabarsizdek, beparvo so'rading:

— Xo'-o'-sh... Bu yerda nimalar bo'lyapti o'zi, Laychavoy? — dedim.

— Mushukni quvib yurib, shu joyda yo'qotib qo'ydim, — deb akilladi Laychavoy. — O'sha xumparni tutib dumini yulmasam, it emasman deb

qasam ichgandim.

— Donolarning gapiga qaraganda, birov bilan o'chakishish umuman yaxshi emas, — deya gerdaydim men. — Ming afsuski, og'zingga qaltisroq so'z olib qo'yibsan. Endi «xit» degan tabarruk nomni astoydil himoya qilmog'ingga to'g'ri keladi. Binobarin, shunday ekan, sen pahlavonzoda...


Gapni ortiqcha cho'z-ganim Laychavoya yoqmadi shekilli, so'zimni shartta bo'lib, «Olimligingni yig'ish-tir! Qoramosh qayerga berkinganini ko'r-dingmi, yo'qmi?» — deb irilladi.

— Ko'rishga-ku ko'rmatim-a, — dedim, hanuz satanglanishni qo'ymay. — Lekin, farosatni ishga soladigan bo'lsak, kalavaning uchini topmoq mumkindir. Ya'ni, Qoramosh kalamush emaski, kavakka kirib ketsa. Agarda aqlim pand bermasa, u xazonning ichiga berkingani ehtimoldan holi emas.

Hali gapimni tugatganim yo'q ediki, Qoramosh xazonning orasidan o'qdek sapchib chiqib, ustimga otildi. Laychavoy ham, men ham o'zimizni o'nglashga ulgurmoy qoldik. Battol mushuk: «Mana senga, chaqimchi!» — dedi-yu, biqinimga bir tirnoq urib o'tib ketdi. Yulungan patlarimni to'zg'ihib, zo'r-bazo'r havoga ko'tarildim. Laychavoy uni yana quvishga tushdi.

Voy, biqinginam-ey! O'rikning shoxida jimgina o'tiraversam bo'lmasidi? Nima qilardim birovlarning ishiga aralashib? Boshqalarga o'zimni aqli qilib ko'rsatgim keldimi deyman-da. Eh, pishmagan kalla!

...Chaqimchilik yomon narsa deysanmi? Aql o'rgatmoqchimisan, uka? Bor, yo'lingdan qolma. Farosat bilan aytganda, shaxsan menga dars berishga hali yoshlik qilasan. Qag'-g'!!!



## KUCHUKNING HIKOYASI

bundan qutilishning iloji yo'q ekan.

Dardi bedavo-da shu opam. Menga sira kun bermaydi. Sal-pal esimda bor, yoshlik chog'imizda ham onamni avval u emardi. Aslida, yonma-yon emsak tuzuk ish bo'lardi-yu, ammo bunga ko'nmasdi u yaramas. Ko'pincha ochligimcha uxlab qolardim.

Mana, zanjirga bog'lansak bog'langudek bo'pqoldik. Biz tengilar allaqachon alohida ityaloq qilishib, odamlarning uyini poylashyapti. Ularga qarab, havasing keladi. Opamning bo'lsa, hali-veri epi kiradiganga o'xshamaydi. Voy uning ochko'zligi!

Gapini qarang, «qiz bolaman, shuning uchun idishni men tozalashim kerak», deydi. O'zingiz ham tushunib turgandirsiz, idishni tozalash, bu — ityaloqdagi yuvindini pok-pokiza yalab qo'yish degani.

Dasturxon qoqlishi bilanoq, qolgah-qutgan nonlargayam birinch bo'lib u xonim chang soladilar. «Hey, uyatsiz, endi buyog'ini menga qo'yib ber-da», desam, «o'g'il bolasan-ku, sen suyakniyam g'ajiyverasan», deb surbetlarcha kavshanishga tushadi. Hech bo'lmasa, ulgurjiroq suyak tegib tursa ham mayliyi. Qayoqda deysiz, hozirgi qassoblar niroyatda noinsof bo'lib ketishgan, bir kilo go'shtga bor-yo'g'i yarim kilo suyak qo'shishadi.

Uf-f, juda hayron bo'pqoldim. Yo uydan shartta bosh olib ketvorsammikan? Bunaqa opa bilan, masalan, siz bir kun ham yasholmagan bo'lardingiz...

Mana, azbaroyi qornim ochganidan, barmog'imni so'ri-i-ib o'tiribman. Opam bo'lsa, «chilip-chilip, chilip-chilip» latib idish tozalayapti. Bir narsa desam, yana qiz bolaligini pesh qiladi. He, beting charmdan bo'lmay ketgur!

...Ishqilib, sen ukangi xafa qilmayapsamni, qizaloq?




## Qarg'aning hikoyasi



2008 Tong yulduzi  
25-avgust

## Championlarga tenglashamiz

# ORZIQIB KUTILGAN G'ALABA



8-avgust kuni Xitoy poytaxti Pekin shahrida alanga oldirilgan mash'ala kuni kecha o'chirilib, keyingi yozgi Olimpiada mezonlari londonliklarga topshirildi.

XXIX yozgi Olimpiada o'yinlari har galgisidan o'zgacha va shiddatli kechdi. Bu bahslarda mamlakatimiz terma jamoasi ham munosib ishtirok etdi. Avvaliga musobaqalarning birinchi kunida dzyudochi polvonimiz Rishod Sobirov Olimpiadaning bronza medaliga sazovor bo'lib, barchamizni xursand qilgandi. Oradan ko'p o'tmay yana bir polvonimiz Abdulla Tangriyev ham kumush medaliga egalik qildi.

Yengil atletikaning batutdan sakrash bahslarida terma jamoamiz sharafini Yekaterina Xilko munosib himoya qilib, xitoylik va kanadalik raqiblaridan so'ng uchinchi o'rinni egallab, musobaqaning bronza medali bilan taqdirlandi. So'ngra, mohir gimnastikachimiz Anton Fokin ham shohsupaning uchinchi o'rindan joy olib, terma jamoamiz hisobidagi medallar sonini oshirdi.

Pekin Olimpiadasi musobaqalarining so'nggi kunlari yurtimiz sportchilarini, ayniqsa,

erkin kurashchilarimiz uchun omadli keldi.

74 kg. vazn toifasida gilamga chiqqan polvonimiz Soslan Tegiyev raqiblari ustidan ajoyib g'alabaga erishib, finalga yo'llanma oldi. Biroq, rossiyalik Olimpiada championi bilan kechgan murosasiz bahsda hamyurtimizga biroz tajriba yetishmadi va kumush medali bilan cheklandi.

Garchi sportchilarimiz turli yo'naliishlarda g'olib va sovrindor sanalishsa-da, ko'pchilik Afina Olimpiadasi oltin medali sohibi va ikki karra jahon championi Artur Taymazovning imkoniyatlarini yuqori baholashgandi. Va shunday ham bo'ldi. Artur uchrashuvlarning barchasida raqiblariga hech qanday imkon bermay, g'olib bo'ldi. Final bahsida Taymazov rossiyalik birinchi raqamli kurashchi Baxtiyor Ahmedov bilan bellashib, muddatdan oldin sof g'alabaga erishdi. Shunday qilib, Artur ikki karra Olimpiada championi degan nomga sazovor bo'ldi. Pekin shahridagi muhtasham kurash zalida madhiyamiz yangrab, bayrog'imiz yuqoriga ko'tarildi.

Sherali NAMOZOV

Tahririyatimizga otaxon nabirasi bilan kirib keldi. Salom-alikdan so'ng ular nabiralari haqida gapirib berdilar.

Zebo Rahmatillayeva Yunusobod tumanidagi 235-maktabning 3-sinfida o'qydi. O'tgan o'quv yillarda birorta ham to'rt baho olmagan. Uning bahosi doimo besh.

o'rgana boshladи.

Otaxon qo'llaridagi suratlar, diplom va «Maqtov yorlig'i»ni uzatar ekanlar, suratlarni ko'rib, ochig'i, hayratlanib ketdik.

— Voy, suratdag'i senmi, qizim?  
— deyman Zeboxonni gapga solmoqchi bo'lib.  
— Men, — deydi boshini



## «JAR»NING ZEBO QIZI

qimirlatib.

— Mashqlaringdan bizga ham ko'rsatib bera olasanmi?

— Ha, albatta, — dedi-yu, harakatlarini keng va yorug' xonamizda birin-ketin ko'rsatib berdi.

Yosh gimnastikachi Zeboxonning chaqqon, epchil va yengil mashqlarini hatto qo'shni xonadagilar ham qiziqib tomosha qilishdi.

Ha, aytmoqchi, tengdoshingiz Zeboxon yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan sport musobaqalarida II darajali diplom bilan taqdirlandi.

Biz yosh gimnastikachi Zeboxon Rahmatillayevaga ulkan zafarlar tilab, kelgusida O'zbekiston bayrog'ini yana-da baland ko'tarishga o'z hissasini qo'shadi, deb umid qilamiz.

FERUZAXON

qimirlatib.

— Mashqlaringdan bizga ham ko'rsatib bera olasanmi?

— Ha, albatta, — dedi-yu, harakatlarini keng va yorug' xonamizda birin-ketin ko'rsatib berdi.

Yosh gimnastikachi Zeboxonning chaqqon, epchil va yengil mashqlarini hatto qo'shni xonadagilar ham qiziqib tomosha qilishdi.

Ha, aytmoqchi, tengdoshingiz Zeboxon yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan sport musobaqalarida II darajali diplom bilan taqdirlandi.

Biz yosh gimnastikachi Zeboxon Rahmatillayevaga ulkan zafarlar tilab, kelgusida O'zbekiston bayrog'ini yana-da baland ko'tarishga o'z hissasini qo'shadi, deb umid qilamiz.

## «TONG YULDUZI»DA – «OLIMPIYA YOZI» TANLOVI

Mirobod tumanidagi 32-maxsus maktabgacha ta'l'muassasasi nafaqat tumanidagi, balki poytaxtimizdagi o'ziga xos nufuzga ega bo'l-gan bog'chalardan biri hisoblanadi. Bu yerda bolalarning sog'lom bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan.



Sport maydonchasi barcha talablar darajasida jihozlangan, zal hamda maxsus suzish havzasi bolajonlarning eng sevimli joylaridan biri. Doimo o'tkazib turiladigan sport bellashuvlari esa bolajonlar uchun doimo zavqli.

Kuni kecha bu maskanda «Biz bo'lg'usi olimpiadachilarimiz» shiori ostida sport bayrami bo'lib o'tdi. Bayram qatnashchilar avval konsert dasturini namoyish etishdi. Pekin Olimpiadasi haqidagi savol-javob tarzidagi muloqotdan so'ng bolalar uch guruha bo'linib yugurish, koptokni olib yurish, epchillik va chaqqonlikni talab etuvchi sport turlari bo'yicha bellashuvga kirishdilar.

Bog'chaning jismoniy tarbiya bo'yicha murabbiyi Yulya Toshpo'latovaning bahslarning yakunlanishini bildiruvchi hushtagi yangraguncha bolajonlar g'oliblik sari intildilar. Musobaqalarni kuzatgan hakamlar esa bir ovozdan har uchchala guruhi, ya'ni do'stlik g'alaba qozonganini e'lon qilishdi. Musobaqa ishtirokchilarining barchasi O'zbekiston Olimpiya qo'mitasи, Xitoy elchixonasi tomonidan taqdim etilgan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

## GO'LIBLAR



Poytaxtimizdagi 29-umumta'lim o'rta maktabning o'qituvchi va o'quvchilari «Pekin – 2008» Olimpiada o'yinlarining yopilishiga bag'ishlab o'ziga xos sport bayramini o'tkazdilar. Sportning turli sohalari bo'yicha ko'plab iqtidorli o'quvchilarga ega maktabda yakkakurashning taekvon-do ITF yo'naliishi bo'yicha shug'ullanuvchi bolalar ko'plab topiladi.

Tajribali murabbiy Nigora Hamdamovaning ko'rsatmalari asosida bolalar mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirgan usullarni zo'r mahorat bilan namoyish eta boshladilar.

Maktab yoshiga yetmagan bolajonlarning aniq harakatlari zalga yig'ilgan ota-onalar va tomoshabinlarda katta taassurot uyg'otdi. Zavq-shavq bilan bellashayotgan bolalarning orzulari bilan qiziqdik. Ularning bir ovozdan «Biz champion bo'lishni orzu qilamiz, Olimpiada o'yinlarida qatnashib yurtimiz sharafini himoya qilamiz» degan so'zlaridan iftixor tuydik.

Biz ham bolajonlarning bu orzulari ushalishiga ishonamiz. Chunki bu bolalar ko'zlagan maqsadlariga erishish uchun timmay intildilar. Yaqinda ular «Olimp sari yo'lb» tanlovida qatnashib sovrindor bo'lgan edilar.

Maktab o'quvchilari qo'lga kiritgan sovrinlarini yig'ib Olimpiya muzeyi tashkil etish niyatidalar. Bir kun kelib bu muzey zallaridan Olimpiada musobaqalarida qo'lga kiritilgan medallar ham joy olsa ajab emas.



FLORA FAXRUTDIN,  
Yusuf FAYZULLO

## GAZETA SAHIFALANAYOTGANDA:

2008-yil 22-avgustda O'zbekiston Milliy matbuot markazi binosida respublikamiz Mustaqilligining 17 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan «Eng ulug', eng aziz-2008» respublika ko'rnik-tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tanlovda jami 962 nafar muallif 6600dan ortiq ishlari bilan qatnashishdi.

## TANLOV G'OLIBLARI:

Yozuvchi va shoirlar: Salim ASHUR, Enaxon SIDDIQOVA, Mengliboy MURODOV, Ilhom ZOYIR, Ismoil TO'XTAMISHEV, Bosma OAV xodimlari: Hulkar TO'YMANOVA, O'roz HAYDAROV, Erpo'lat BAXT, Aleksandra SPIRIDONOVA, Ahmadali SHERNAZAROV, Televideniye va radio ijodkorları: Shuhrat IBROHIMOV, Zilola XUDOYQULOVA, Marat TAYMURATOV, Xudoynazar DO'STQOBILOV, Bekpo'lat TOG'AYEV, Tasviriy san'at asarlari bo'yicha: Muhammad AMIN, Joldasbek QUTTIMUROTOV, Axlidin XOLIQOV, Sunnatilla SULAYMONOV, Abduhakim KARIMOV, Kino san'ati asarlari bo'yicha: Najmiddin G'ULOMOV, Ilmira RAHIMJONOVA, Ulug'bek QODIROV, Mansur ABDUHOLIQOV, Lizaxonim AXIMBETOVA lar 1,-2,-3- o'rinn va rag'batlantiruvchi mukofot sohiblari bo'lishdi.


## G'OLIBLARNI TABRIKLAYMIZ!



## «JUG'ROFIY» CHAYNVORD

1. Yer sharining qutblari orqali ekvatorni to'g'ri burchak kesib o'tgan faraziy chiziq.
2. Respublikamizdagi yaylovlarga boy tog'lik, Turkiston tizmasining shimaliy-g'arbiy tarmog'i.
3. Dunyodagi eng sersuv daryo.
4. Oxota dengiziga quyluvchi Uzoq sharqdagi daryo.
5. Boltiq bo'yidagi respublika poytaxti.
6. Jug'rofiyadan o'quv quroli.
7. Qora dengiz sohilidagi port, orombaxsh maskan.
8. Pokiston davlati poytaxti.
9. Bepoyon suv havzasasi.
10. Markaziy Osiyodagi daryoga nomdosh vodiylari.
11. Yantszi daryosining quyi oqimida jaylashgan Xitoydagi port shahar.
12. O'zbekiston hududidagi poytaxt.
13. Tirik mavjudot uchun zarur modda.
14. Hindixitoy yarim orolidagi davlat.
15. Saudiya Arabistonidagi muqaddas shahar.
16. Yoqtistondagi daryo.
17. Himolay tog'larining markaziy qismidagi davlat.
18. G'arbiy Osiyodagi O'rta dengizning markazidagi mamlakat.
19. Ladoga ko'lidan oqib chiqib, Fin qo'ltig'iga quyluvchi daryo.
20. Markaziy Osiyodagi Orol dengiziga quyluvchi daryo.
21. Gretsiyadagi Milliy bog' joylashgan tog'lik.
22. Italiya tarkibidagi Sitsiliya orolidagi shahar.
23. Norvegiya davlati poytaxti.
24. Irtish daryosi bo'yidagi shahar, viloyat markazi.
25. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi respublika poytaxti.
26. Janubiy Amerikaning shimalidagi davlat.
27. Yeniseyning chap irmog'i.
28. Tojikistondagi energetiklar shahri.
29. Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro kenglik stansiyasi jaylashgan vatanimizdagli maskan.
30. Sohilning dengiz, ko'l yoki daryoga eng ko'p turtib chiqqan qismi.
31. Farg'ona vodiyisidan oqib o'tuvchi daryo.
32. Fransiyaning Luara daryosi quylishidagi port shahar.
33. Osiyodagi Yer yuzining eng katta va baland tog'ligi.
34. Ekvator atrofidagi issiq mintqa.
35. O'rta dengizdagi orol.
36. Armanistondagi daryoga nomdosh shahar.
37. Eng uzun daryo.
38. Marokashning Gibraltar bo'g'ozni sohilidagi burun.
39. Niderlandiya qirolligi poytaxti.

Foziljon ORIPOV tuzdi



## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:  
Fazliddin  
SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Gulyuz  
ORIFJONOVA

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHIRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 21477  
Buyurtma N: J 4856

## TUNDA

– Oyi, ustim ochilib ketibdi, yopib qo'ying, – dedi besh yoshli Ravshan oyisiga.

– Shundoq yoningdag'i ko'rpani ustingga tortib ola qol, o'g'lim, o'zing katta bolasan-ku, – dedi onasi o'midan turishga erinib.

– Axir men uxlab yotibman-ku, oyi!..

## GILOS

Besh yoshli Rasul dadasidan so'radi:

– Dada, gilos qachon pishadi?

– Gilos endi gulladi, o'g'lim, yana ikki oylardan keyin pishadi. Pishganda albatta olib kelaman, gilos yeging keldimi?

– Olib kelmasangiz ham bo'ladi, dada, Nodirlarning giloshamoda sinib ketgan, shoxidan olib kelib, gultuvakdag'i gullarni yulib tashlab, o'miga ekib qo'ydim...

## MEHMONDORCHILIKDA

Kattalar oynayi jahonda qandaydir filmni qiziqib tomosha qilishardi. Onasi bilan mehmonga borgan to'rt yoshli Saydullo zerikanidan dedi:

– Bularning oynayi jahonda multfilm ko'rsatmas ekan.